



SHOAXMEDOV SHORASUL VA UNING MINIATYURA SAN'ATIDAGI O'RNI

Sa'dullayeva Nilufar Shorasul qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq xalqlari madaniyatida miniatyura san'atining tutgan o'rni, uning tarixiy taraqqiyoti va badiiy-estetik xususiyatlari yoritilgan. Asarda O'zbekistonlik rassom Shoaxmedov Shorasul ijodi alohida tahlil qilinib, uning milliy miniatyura san'atini rivojlantirishdagi hissasi ko'rsatib berilgan. Rassomning ijodiy izlanishlarida an'anaviy Sharq miniatyura maktablari, xususan, Kamoliddin Behzod an'analari hamda zamonaviy falsafiy talqinlar uyg'unlashganligi ta'kidlangan. Shoaxmedov ijodidagi falsafiy g'oyalar, ramz va timsollar, milliylik hamda universallik uyg'unligi ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Miniatyura san'ati, Sharq madaniyati, badiiy meros, ramz va timsollar, milliy qadriyatlar, zamonaviy talqin, falsafiy miniatyura.

Kirish

Sharq miniatyurasi ilk davrda diniy qo'lyozmalarni bezashda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik tarixiy voqealar, saroy hayoti, jangovar manzaralar va tabiat tasvirlarini ham o'z ichiga oldi.

Grabar (1992) miniatyura san'atini "ornament va ramzlar vositasida voqelikni ifodalashning o'ziga xos shakli" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, miniatyura oddiy tasvir emas, balki estetik falsafiy tizimdir.

Roxburgh (2005) esa "albom san'ati" haqida yozar ekan, miniatyura faqat qo'lyozmalarni bezash bilan cheklanib qolmaganini, balki mustaqil badiiy janr sifatida ham shakllanganini ta'kidlaydi. Bu jarayon XV–XVI asrlarda o'zining yuksak cho'qqisiga chiqqan. Miniatyura san'ati Sharq xalqlari tarixiy-madaniy merosining eng nodir va betakror ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bu san'at turi o'zining ko'hna ildizlari va boy an'analari bilan ajralib turadi. Asrlar davomida u nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki xalqning turmush tarzi, diniy-falsafiy dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th September, 2025

xizmat qilgan. Miniatyura asarlari orqali o'tmish hayot manzaralari, qahramonlar obrazi, adabiy asarlar syujeti va ijtimoiy muhit badiiy talqin etilib, kelajak avlodga yetkazilgan. Sharq miniatyura san'ati o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Ilk miniatyura namunalari qo'lyozma kitoblarni bezash va ularning ilmiy hamda badiiy mazmunini yanada ta'sirchan qilish maqsadida yaratilgan. Masalan, Qur'on qo'lyozmalari, hadis to'plamlari va Sharq mutafakkirlarining falsafiy hamda adabiy asarlari miniatyuralar bilan ziynatlangan. Keyinchalik bu san'at turida inson qiyofasi, hayvonot olami, jangovar sahnalar, bayram marosimlari va tabiat manzaralarini tasvirlash keng yoyildi. Bugungi kunda bu sohada o'ziga xos ijodiy maktab yaratgan rassomlardan biri Shoaxmedov Shorasuldir. U o'z ijodi orqali miniatyura san'atini yangi bosqichga olib chiqib, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan ijodkordir.

Asosiy qism

Markaziy Osiyo miniatyura san'ati Buxoro, Samarqand va Hirot maktablari orqali jahon san'ati tarixida o'z o'rniga ega bo'ldi. Pugachenkova (1975, 1979) asarlarida Markaziy Osiyo miniatyuralarini keng tahlil qilib, ularning uslubiy xususiyatlarini aniqlagan.

Bu maktablarda ishlangan miniatyuralarda ranglar uyg'unligi, dekorativlik va tafsilotlarga katta e'tibor berilgan. Ayniqsa, Buxoro maktabi nafis rang tanlovi va milliy ruhiy talqinlari bilan mashhur bo'lgan.

Sharq miniatyura maktablari o'ziga xos uslub va badiiy qarashlari bilan jahon madaniyati tarixida muhim o'rin egallaydi. Masalan, Bag'dod maktabi sodda tasviriy vositalar va jonli ranglari bilan mashhur bo'lgan. Tabriz va Sheroz maktablarida esa miniatyura yanada murakkablashib, tafsilotlarga e'tibor kuchaygan. Hirot maktabi, xususan, Kamoliddin Behzod ijodi orqali Sharq miniatyurasini yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Behzod asarlarida inson qiyofasining tabiiyligi, syujetning hayotiyliigi va psixologik tasvirning chuqurligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buxoro maktabi esa o'zining nafis rang tanlovi, dekorativlik va uyg'unlik tamoyillari bilan ajralib turadi. Sharq miniatyura san'ati adabiyot bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Buyuk shoir va mutafakkirlar — Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Firdavsiy asarlari asosida yaratilgan



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th September, 2025

miniatyuralar o‘z davrining badiiy tafakkurini yuksak darajada aks ettirgan. Masalan, “Xamsa” dostonlari asosida ishlangan miniatyuralarda qahramonlarning obrazlari, tarixiy va afsonaviy voqealar, saroy hayoti, jangovar sahnalar va tabiat manzaralari tasvirlangan. Bu jarayon adabiyot va tasviriy san’at o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qildi.

Miniatyura san’atida tabiat manzaralari, bog‘-rog‘lar, saroy hayoti va xalq urf-odatlarini tasvirlash orqali o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muhiti aks ettirilgan. Bu esa nafaqat tarixiy ma’lumot sifatida, balki xalqning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va falsafiy dunyoqarashini ham tadqiq etish imkonini beradi. Shu bois miniatyuralar tarixchilar, san’atshunoslar va madaniyatshunoslar uchun bebaho manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek miniatyura san’ati qayta tiklana boshladi. Bu jarayon nafaqat merosni saqlash, balki uni yangi shaklda rivojlantirishni ham ko‘zda tutdi. O‘zbek rassomlari an’anaviy miniatyuradan ilhomlanib, zamonaviy estetik qarashlarni qo‘shib ijod qila boshladilar.

Welch (1976) ta’kidlaganidek, Sharq rassomlari avlodlar davomida uslublarni nafaqat saqlab qolgan, balki yangicha talqinlarda ham davom ettirgan. O‘zbek rassomlari ham aynan shu jarayonni amalga oshirgan

Shoaxmedov Shorasul O‘zbekiston miniatyura san’ati maktabida o‘z ijodiy izini qoldirgan rassomlardan biridir. Asqarova (2024) tadqiqotida uning ijodi “Dervish obrazining zamonaviy miniatyuradagi talqini” nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Rassomning asarlarida tasavvufiy ramzlar, insonning ichki izlanishlari va ruhiy uyg‘onish g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi.

Uning asarlarida milliy an’analar, tarixiy voqealar va falsafiy mazmunlar uyg‘unlashib ketadi. U an’anaviy Sharq miniatyura maktabi — xususan, Kamoliddin Behzod ijodiy merosiga tayangan holda, o‘zining yangicha falsafiy-estetik qarashlarini namoyon qilgan. Rassomning asarlarida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- nozik chiziqlar va rang uyg‘unligi – usta rassom miniatyuraning an’anaviy usullarini zamonaviy ranglar uyg‘unligi bilan boyitadi.
- falsafiy g‘oyalar – asarlarida inson va tabiat munosabatlari, ma’naviy izlanishlar, milliy qadriyatlar ramziy obrazlar orqali ifodalanadi.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th September, 2025

- zamonaviy talqin – u an'anaviy miniatyura syujetlarini bugungi davr estetikasi bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos yangi maktab yaratishga intiladi.

Blair va Bloom (2011) o'z tadqiqotlarida islom san'ati doimiy ravishda yangi mazmun kasb etib borishini ta'kidlagan. Shoaxmedov ijodi ham an'anaviy miniatyurani zamonaviy shaklda talqin qilish orqali ana shu uzviylikni davom ettiradi. U qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralardan farqli o'laroq, falsafiy ramzlar va zamonaviy ijtimoiy mavzular keng o'rin olgan. Masalan, uning ishlari orasida tarixiy shaxslar, adabiy obrazlar bilan bir qatorda bugungi zamon insonining ichki dunyosini ochib beruvchi miniatyuralar ham mavjud. Miniatyura san'atidagi yangicha yondashuvlari Shoaxmedov Shorasul o'z ijodida quyidagi yangiliklarni tatbiq etgan:

1. Falsafiy miniatyura maktabi – u asarlarida qadimiy Sharq miniatyura maktabiga tayangan holda, zamonaviy falsafiy talqinlarni ifoda etadi.
2. Ramz va timsollar – rassom asarlarida rang va chiziqlar orqali ramziy obrazlar yaratadi, bu esa tomoshabinni chuqur fikrlashga undaydi.
3. Milliylik va universallik uyg'unligi – uning miniatyuralari o'zbek milliy san'ati an'analariga asoslangan bo'lsa-da, umumjahon estetik qadriyatlari bilan hamohangdir.

Shoaxmedovning asarlari ko'plab milliy va xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilgan. U faqatgina rassom sifatida emas, balki miniatyura san'atining ilmiy asoslarini o'rgangan va bu borada tadqiqotlar olib borgan ijodkor sifatida ham tanilgan.

Bugungi kunda ham miniatyura san'ati Sharq xalqlarining milliy o'zligini, estetik qadriyatlarini va badiiy didini namoyon etuvchi muhim meros bo'lib qolmoqda. U nafaqat muzeylarda saqlanayotgan tarixiy asarlar, balki zamonaviy rassomlar ijodida ham o'z davomchiligini topmoqda. O'zbekiston, Eron, Turkiya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda miniatyura san'ati qayta tiklanib, yosh avlodni milliy badiiy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashda keng qo'llanilmoqda.

Miniatyura san'ati Sharq xalqlari madaniyatining eng qadimiy va betakror an'alaridan biri bo'lib, u nafaqat badiiy, balki tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Asrlar davomida rivojlanib kelgan bu san'at turida xalqning madaniyati, adabiyoti, estetik qarashlari va turmush tarzi mujassam bo'lgan. Miniatyura san'ati milliy



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th September, 2025

madaniyatni saqlash, uni targ‘ib qilish va yangi avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib qolmoqda, u Sharq xalqlarining madaniy merosidagi eng go‘zal durdonalardan biri sifatida qadrlanadi va ko‘p asrlik madaniyatini, badiiy tafakkurini va ma‘naviy merosini mujassamlashtirgan. Bu san‘at nafaqat o‘tmish xotirasi, balki bugungi kun madaniy taraqqiyotining ham muhim unsurlaridan biri sifatida qadrlanadi.

Shoaxmedov miniatyuralarida inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik markaziy o‘rinni egallaydi. Uning asarlarida ko‘pincha ramzlar orqali chuqur ma‘naviy g‘oyalar ifodalanadi. Sims (2002) qayd etganidek, Sharq miniatyurasi ko‘pincha “tasvir orqali metafora yaratish” san‘ati bo‘lib, Shorasulning ishlari ham aynan shu tamoyilga asoslangan.

Masalan, dervish obrazlari orqali insonning ruhiy izlanishlari, tabiat manzaralari orqali esa hayotiy muvozanat g‘oyalari ifodalanadi. Shoaxmedov asarlari nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham keng tanilgan. Uning ishlari xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilib, o‘zbek miniatyura san‘atini dunyoga targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Roxburgh (2005) miniatyura albomlari haqida yozar ekan, zamonaviy rassomlarning ijodi ham jahon san‘ati kontekstida baholanishi lozimligini ta’kidlaydi. Shoaxmedov ijodi ham bugungi global badiiy jarayonlarda o‘z o‘rniga ega.

Shoaxmedov ijodi nafaqat san‘at asarlari, balki ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ham dolzarb. Asqarova (2024) tadqiqotida uning asarlari tasavvufiy obrazlar bilan bog‘lanib o‘rganilgan. Bundan tashqari, Ismailova (1987) va Pugachenkova (1975, 1979) tadqiqotlari Sharq miniatyurasi umumiy rivojini tahlil qilishda Shoaxmedov ijodini tarixiy kontekstda tushunishga yordam beradi.

Xulosa

Shoaxmedov Shorasul zamonaviy o‘zbek miniatyura san‘atining eng yorqin vakillaridan biridir. U o‘z ijodida Sharq miniatyura an‘analarini chuqur o‘rganib, ularni zamonaviy badiiy talqinlar bilan uyg‘unlashtirgan. Uning asarlarida milliylik va universallik, ramziy ifoda va falsafiy mazmun uyg‘unlashib ketadi.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th September, 2025

Sharq miniatyura san'ati tarixida Hirot, Buxoro maktablari qanday o'rin tutgan bo'lsa, bugungi kunda Shoaxmedov ijodi ham o'zbek miniatyurasining yangi bosqichini ifodalaydi.

Shu sababli, Shoaxmedov Shorasul ijodini yanada keng o'rganish, uning asarlarini ilmiy tahlil qilish va kelajak avlodga yetkazish — nafaqat san'atshunoslik, balki madaniyatshunoslik va falsafa sohalarida ham dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova, Z. (2024). Interpretation of the dervish image in contemporary miniature of Uzbekistan: Works of Shorasul Shoakhmedov and Davron Toshev. *Proceedings of the International Scientific Conference on Art and Culture Studies*. Tashkent.
2. Blair, S., & Bloom, J. (2011). *The art and architecture of Islam 1250–1800*. New Haven, CT: Yale University Press.
3. Grabar, O. (1992). *The mediation of ornament*. Princeton, NJ: Princeton University Press.
4. Ismailova, E. M. (1987). *Art of book decoration in Central Asia: 18th–19th centuries*. Tashkent: Fan Publishing House.
5. Lentz, T. W., & Lowry, G. D. (1989). *Timur and the princely vision: Persian art and culture in the fifteenth century*. Los Angeles: Los Angeles County Museum of Art.
6. Pugachenkova, G. A. (1975). *Miniatures of Central Asia in selected examples*. Moscow: Iskusstvo.
7. Pugachenkova, G. A. (1979). *Central Asian miniatures (16th–18th centuries in selected examples)*. Tashkent: Uzbekistan Academy of Sciences.
8. Roxburgh, D. J. (2005). *The Persian album, 1400–1600: From dispersal to collection*. New Haven, CT: Yale University Press.
9. Sims, E. (2002). *Peerless images: Persian painting and its sources*. New Haven, CT: Yale University Press.
10. Welch, S. C. (1976). *Artists of the Persian tradition*. New York, NY: Oxford University Press.